



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-avgust

VII-13-96-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘on tumanida “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, xizmat va qishloq xo‘jaligi sohalarida amalga oshiriladigan 2-bosqich drayver loyihalar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish va ma’qullah haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-223-sun Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagи “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sun Farmoniga muvofiq 2025-yilda “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarida 2-bosqich “drayver” loyihalar shakllantirilib, mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun infratuzilma obyektlarini qurish va ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari bo‘yicha tasdiqlangan takliflar va manzilli ro‘yxatlari xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’qullah uchun kiritilgan.

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini joriy qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-223-sun Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagи “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sun hamda 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning

roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son farmonlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Zarbdor tajribasi” asosida 2-bosqichda sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashga turtki beruvchi shakllantirilgan loyihalar takliflari 1-ilovaga, zarur infratuzilma bilan ta‘minlash uchun moliyalashtirishni boshlash taklifi manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Rasulov), tuman elektr tarmoqlari korxonasi” (J.Alimov), Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasining tumanga mas’ul vakili hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Normurodov) loyihalarni o‘z vaqtida, tizimli va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Bunda, dastur doirasida ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha quyidagi qat’iy choralarini ko‘rsin:

loyihalar doirasida obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar har bir jarayonni to‘liq nazoratga olish;

buyurtmachilar hamda loyiha va pudrat tashkilotlari o‘rtasida o‘z vaqtida va o‘rnatilgan tartibda shartnomalar tuzilishi, ularning moliyalashtirilishi;

qurilish jarayonida mualliflik, texnik va davlat nazorati olib borilishini, bu borada aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha berilgan yozma ko‘rsatmalar va ularni bajarilishi;

bajarilgan ish hajmlari bo‘yicha to‘lovga topshirilgan dalolatnomalar haqqoniyligini texnik nazoratchi va qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi xodimlari ishtirokida o‘rganib borilishi;

qurilish va obodonlashtirish ishlari bo‘yicha muammolarni aniqlab, bartaraf qilib borilishi;

bajarilgan ishlar hajmi bo‘yicha topshirilgan dalolatnomalarning haqqoniyligiga alohida e’tibor bergen holda, qo‘sib yozish, sifatsiz ishlarni aniqlash va ularni joyida bartaraf etish;

aniqlangan har bir qo‘sib yozish va sifatsiz ishlar bo‘yicha ma’lumotnomalar tuzish, qonun buzilish holatlari yuzasidan huquq-tartibot idoralariga ma’lumot taqdim etib borilishini ta‘minlash.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Rasulov), tumani qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (O.Pirnazarov) ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlarini eng maqbul shartlarda ishlab chiqish, ishlarni sifatli, belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta‘minlash, nazoratga olish hamda bajarilgan ishlar yakuni bilan tegishli o‘lchov tekshirish va nazorat tadbirlarini amalga oshirish choralarini ko‘rsinlar.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (L.Ziyayev) manzilli ro‘yxat doirasida ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan doimiy nazoratni kuchaytirsin va har chorak yakunlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Raximov) ishga tushirilgan loyihalar doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlariga mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni, shuningdek, kambag‘al oila a’zolarini ishga joylashtirish va **“yangiish.mehnat.uz”** platformasiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

7. Tuman sektor rahbarlari loyihalar doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan hudud aholisi o‘rtasida targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirsin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashlari deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va tuman Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan loyihalarni o‘z vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

9. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun gazetasi tahririysi (O‘.Usmonov)ga mazkur qarorda belgilangan loyihalarni bajarilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazarat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari M.Zavqihev va M.Rasulovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 18-avgustdagি

1-ilova

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida “**Zarbdor tajribasi**” asosida **2-bosqichda** sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashga turtki beruvchi shakllantirilgan loyihalar

№	MFY nomi	I. "Drayver" loyihalarni amalga oshirish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar		II. Chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida amalga oshiriladigan loyihalar (yaratiladigan loyiha) yoki yaratiladigan imkoniyatlar							III. Kutilayotgan natija. iqtisodiyotni yoki tegishli sohasaning o'sishga ta'siri			
		Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Talab etiladigan byudjet mablag'lari (mlrd.s0 'm)	Tadbirlarni amalga oshirish natijasida tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar	Soha (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat)	Jami loyiha qiymati (mlrd.s0 'm)	Tashhabbuskor mablaglari (mlrd.s0 'm)	shundan,	bank krediti (mlrd.s0 'm)	xorijiy investitsiya (mln.\$)	Ishga tushish muddati (oy/yil)	Yaratiladigan ish o'rni	byudjetga qo'shimcha soliq tushumi	Yaratiladigan hajm
		2	5,0	x	x	4,0	4,0	0,0	0,0	x	70	0,7	5,9	
1	Mulla-ko'rpa MFY	Tuman hududidan oqib o'tuvchi Qoradaryo sohili bo'yida joylashgan 3,0 hektar yer maydonida istirohat ekobog' tashkil etish loyihasini amalga oshirish. <i>Buning uchun, 1,7 km Asfalt qoplamasni (840 mln so'm), 6 ming kVm ga yashil hudud barpo etish (416 mln so'm), Hududni tekis xolga olib kelish (210 mln so'm), 1 km Hudud atrofini o'rash (478 mln.so'm) 1,2 km piyodalar yo'laklari qurish (330 mln so'm) mablag'lari talab etiladi.</i>	2,3	Qoradaryo sohili bo'yida istirohat bog'i va eko bog' tashkil qilish zarur infratuzilma bilan taminlash orqali hududda 4 ta savdo-servis obektlari, 1 ta umumiy ovqatlanish shaxobchasi, 3 ta savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalari hamda attraksion va ko'ngilochar qurilmalar tashkil qilinadi.	Xizmat ko'rsatish	2,0	2,0				2025 yil dekabr	50	0,3	3,5
2	M.Ulug'-bek MFY	Xatirchi kanali bo'yining 0,6 km qismini obodonlashtirish orqali savdo va servis obektlarini tashkil etish. <i>Buning uchun, 0,6 km Salomatlik yo'lagi (Piyodalar yo'lagi, velo yo'lak, Lotok betonniy, Kanal buyiga dekorativ panjara o'rnatish, tungi yoritgich o'rnatish, O'tirgichlar</i>	2,7	Xatirchi kanali bo'yining 0,6 km qismini obodonlashtirish orqali 6 ta savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etiladi.	Xizmat ko'rsatish	2,0	2,0				2025 yil dekabr	20	0,4	2,4

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 18-avgustdagি

2-ilova

**Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "drayver" loyihalarini
amalga oshirish uchun 2-bosqichning
DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI**

T/r	"Drayver" loyihalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni	Buyurtmachi tashkilot nomi	Yo‘nalish nomi	Ish turi	Loyiha quvvati jami		shu jumladan	Loyiha (obyekt)ning dastlabki qiymati (mln so‘m)	shundan	
							O‘lchov birligi	Miqdori			Respublika byudjeti	Mahalliy byudjet
	Kattaqo‘rg‘on tuman		3							4 975	4 975	
1	Tuman hududidan oqib o‘tuvchi Qoradaryo sohili bo‘yida joylashgan 3,0 hektar yer maydonida istirohat ekobog‘ tashkil etish loyihasini amalga oshirish. Buning uchun, 1,7 km Asfalt qoplamasi (840 mln so‘m), 6 ming kVm ga yashil hudud barpo etish (416 mln so‘m), Hududni tekis xolga olib kelish (210 mln so‘m), 1 km Hudud	Mullako‘rpa MFY	1	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash	Asfaltlash	km	1,7	1,7	840	840	
			yashil hudud barpo etish		ming kVm	6,0	6,0	416	416			
			Hududni tekislash		ming kVm	6,0	6,0	210	210			
			Hudud atrofini o‘rash		km	1,0	1,0	478	478			

T/r	"Drayver" loyihibar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni	Buyurtmachi tashkilot nomi	Yo'nalish nomi	Ish turi	Loyiha quvvati jami		shu jumladan		Loyiha (obyekti)ning dastlabki qiymati (mln so'm)	shundan	
							O'lclov birligi	Miqdori	yangi qurilish	rekonstruksiya		Respublika byudjeti	Mahalliy byudjet
	atrofini o'rash (478mln.so'm) 1,2 km piyodalar yo'laklari qurish (330 mln so'm) mablag'lar talab etiladi.					Piyodalar va veloyo'lak qurish	km	1,2	1,2		330	330	
2	Xatirchi kanali bo'yining 0,6 km qismini obodonlashtirish orqali savdo va servis obyektlarini tashkil etish. Buning uchun, 0,6 km Salomatlik yo'lagi (Piyodalar yo'lagi, velo yo'lak, Lotok betonniy, Kanal buyiga dekorativ panjara o'rnatish, tungi yoritgich o'rnatish, O'tirgichlar (Mramorniye Skameyki) o'rnatish, Yashil hudud barpo etish (Sug'orish tizimi bilan)) tashkil etish (1067 mln so'm), 4200	M.Ulug'bek MFY	1	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	Salomatlik yo'lagi	km	0,6	0,6		1 067	1 067	
						Qirg'oq bo'yini toshlar bilan mustahkamlash	km	1,2	1,2		924	924	
						avtoturargoh tashkil qilish	ming kVm	1,0	1,0		110	110	

T/r	"Drayver" loyiҳalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiҳa soni	Buyurtmachi tashkilot nomi	Yo'nalish nomi	Ish turi	Loyiҳa quvvati jami		shu jumladan		Loyiҳa (obyekti)ning dastlabki qiymati (mln so'm)	shundan	
							O'lclov birligi	Miqdori	yangi qurilish	rekonstruksiya		Respublika byudjeti	Mahalliy byudjet
	kVm qirg'oq bo'yini toshlar bilan mustahkamlash (924 mln so'm), 1000 kVm avtoturargoh tashkil qilish (110 mln so'm), 1 dona osma ko'prik qurish (40 metr) (600 mln so'm) talab etiladi.					Ko'prik qurish	dona	1,0	1,0		600	600	